

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATEMATIKANI HAYOTGA BOG‘LAB O‘QITISH USULLARI VA UNING AHAMIYATI

Roxmonova Dildora Yaroshboyevna

Xorazm viloyati Bog‘dot tumani

41- son maktab o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda matematika fanini hayotga bog‘lab o‘tish usullari va uning ahamiyati haqida so‘z borgan.

Kalit so‘zlar: matematika, Ostragradskiy, metodika, pedagogic ta‘lim, tushuncha, usul.

Matematika so‘zi grekchadan tarjima qilinganda fanlarni bilish degan ma‘noni anglatadi. Matematika fanini o‘qitishda ko‘zda tutilgan maqsad matematika o‘qitish mazmunini ilmiy, bir tizimga kirgan bilimlar darajasini o‘quvchining yosh xususiyatiga mos keladigan qilib taqsimlashdan iborat. Matematika metodikasi pedagogikaning umumiy nazariyasiga bog‘lanib shu asosida shakillanadi. Bu esa matematika o‘qish masalalarini hal etishda metodik va nazariy yaqinlashishning bir butunligini taminlaydi.

Matematika fani 1-sinfdan o‘qitila boshlanadi. Boshlang‘ich sinflarda matematika darsini hayotga bog‘lab o‘tishda o‘quvchiga ma‘lum bo‘lgan va ongida tassavvurga ega bo‘lgan tushunchalar bilan bog‘lab o‘qitish bolaning teziroq tushunishiga va kengiroq fikrlashiga yordam beradi. O‘quvchilarning hozirgi kunda zarur bo‘lgan bilimlarni, malaka, ko‘nikma va aqliy qobiliyatlarini egallab olishga yordam beradi.

Ostragradskiy “Ong kuzatishdan keyin paydo bo‘ladi, ong real, mavjud olamga asoslangandir” deb takidlagan. O‘quvchilarga bilim berish jarayonida unga tanish bo‘lgan atrof-muhit bilan bog‘lab tushuntirish samaralidir.

Matematika o‘qitish metodlari eng avval kichik yoshdagi o‘quvchilarni umumiy tizimda o‘qitish va tarbiyalash vazifasini qo‘yadi. Boshlang‘ich sinflarda matematika fanini o‘qitishning asosiy vazifalaridan biri matematik bilimlar to‘risida tushuncha (tushuncha-predmet to‘plamlarining muhim umumiy belgilari to‘g‘risidagi fikr) berish.

Boshlang‘ich sinfdan matematika fanini hayotga bog‘lab o‘rgatishda ko‘rgazmali qurollar, didaktik o‘yinlar, mantiqiy masalalar va boshqa usullardan foydalanish samaralidir.

Biz ta'lim deganda o'qituvchi va o'quvchilar orasidagi ongli maqsadga yo'nalgan fa'oliyatni tushunamiz. Dastlab birinchi sinflar uchun o'simliklar, jonivorlar, daraxtlar suratlari yordamida qo'shish va ayirish amallari o'rgatiladi. Bu jarayon natijasida o'quvchi buning nima va qanday ekanligi hisoblash keraklidini anglab yetadi.

Inson sezgi azolari vositasida real olamni biladi, o'zaro aloqada bo'ladi. Bolish jarayonida sezgilar bilan idrok ham qo'shiladi. Kelgusida esa idrok o'quvchi hayotida muhim ro'l o'ynaydi, tassavurni kuchaytiradi. Ko'rgazmali qurollar o'quvchilar ongini rivojlantiradi, ko'rgazmali qurollarni tayyorlashda uchburchak, to'rtburchak va aylana kabi shakillardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Boshlang'ich sinfda matematika fanini hayotga bog'lab o'qitishda didaktik o'yinlarning ahamiyati katta hisoblanadi. O'yin orqali o'quvchilarning aqliy rivojlanishini o'stirish mumkin va bu fanga qiziqishni ham oshiradi. O'quvchi bu jarayonda ishtrok etishi oqibatida o'ziga bo'lgan ishonchi va dunyoqarashi orta boradi. Pedagog Komenski "o'yin bola fa'oliyatining asosiy shakli, aynan o'yin bolaning fa'oliyati va qiziqishiga mos keladi. O'yin bolaning aqliy fa'oliyaini har tomonlama o'stirib tevarak-atrof haqida tasavvurlarini kengaytiradi" deb takidlab o'tgan.

Boshlang'ich sinfda matematika fanini hayotga bog'lab o'qitish metodikasida mantiqiy masalalarning ham ahamiyat katta. Mantiqiy masalalar inson ongi tafakkuri, fikrlash qobuliyatini o'stirib o'quvchi kelajakda o'z kasbini erkin Tanlay olish imkonini beradi. Mantiqiy masalalar hayotiy jarayonlar bilan chambarchas bog'liq holatda tushuntirish o'quvchilar tassavurini kengaytiradi. Bunday masalalar o'quvchida fanga nisbatan qiziqishni uyg'otadi.

O'quvchilarni matematika faniga qiziqtirish uchun-matematik o'yinlar, sehirli sonlar, qiziqarli matematik sonlar, sehirli kvadrat, matematik viktorina o'yinlari, qiziqarli tarixiy hikoyalar va to'garaklar tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Boshlang'ich sinflarda matematik metodlar va turlicha qarashlar mavjud. Matematika fanini hayotga bog'lab o'rganish amaliy jarayonlarda o'tilayotgan amaliyotni ongli chuqur o'zlashtirish uchun yordam beradi. O'quvchilarning amaliy ish qilishlari, turli hil muommoli vaziyatlardan to'g'ri chiqishni o'rgatadi. Matematika hayotda uchiraydigan turli holatlarda hayotiy hodisalarni o'z ichiga oladi, shunday ekan, matematikani o'quvchilar ongiga chuqur singdirish uchun uni hayotga bog'lab tushuntirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. S.Alixanov. Matematika o‘qitish metodikasi. Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent-2011.
2. Sh. A. Alimov, O. R, Xolmuhamedov, M. A. Mirzaahmedov. Algebra (7-sinf uchun darslik, 5-nashri). “O‘qituvchi” Nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent-2017.
3. M.E.Jumaev, Z.G‘.Todjiyeva. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. Toshkent-2005